

38-01-13-son
2025-yil 04-avgust



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va
iste’molchilar huquqlarini himoya
qilish qo‘mitasi raisi
_____ H.S. Turaxujayev

2025-yil 04 -avgust

**O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar
huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining ishchi yig‘ilishi
BAYONI**

2025-yil 04-avgust

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

H. Turaxujayev – O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi

Ishtirok etdi

F. Karabayev - Rais o‘rinbosari
T. Abdurashidov - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bosh mutaxassisi

Qatnashganlar:

Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi va hududiy organlarining 2025-yil ikkinchi yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida.

2. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil ikkinchi yarim yillik ish rejasida Qo‘mita mas’ul bo‘lgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli tashkil qilish to‘g‘risida.

(H.Turaxujayev)

Yig‘ilishni Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita deb yuritiladi) H. Turaxujayev ochib,

kun tartibidagi masala bo‘yicha majlis qatnashchilarini tanishtirdi.

Shundan so‘ng, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-yarim yillikda o‘tkaziladigan majlislar, Bosh vazir o‘rinbosarlari kotibiyatlarining 2025-yil 2-yarim yillik ish rejalarini hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati tarkibiy bo‘linmalarining 2025-yil 2-yarim yillik ish rejalarini tasdiqlangani hamda ma’lumot uchun kelib tushganini ma’lum qildi.

Shuningdek, tovar yoki moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga, raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni nazorat qilishni amalga oshirish hamda ularga chek qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan, raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlardan va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-yarim yillik ish rejasidagi topshiriqlardan kelib chiqqan holda Qo‘mita va uning hududiy organlarini 2025-yilning 2-yarim yilligiga mo‘ljallangan **Ish rejalar** ishlab chiqilganligini bildirdi.

Qo‘mita raisi H. Turaxujayev Qo‘mita Ish-rejasidagi hamda Vazirlar Mahkamasi ish rejasidagi topshiriqlarni belgilangan muddatlargacha o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha Qo‘mita raisi o‘rinbosari hamda tarkibiy bo‘linmalar rahbarlariga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

Kun tartibidagi masalalar muhokama qilinib, yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi va hududiy organlarining 2025-yil 2-yarim yillik uchun ishlab chiqilgan:

- Qo‘mita markaziy apparatining ish rejasi **1-ilovaga** muvofiq;
- Qo‘mita hududiy organlarining **Ish rejalar** **2.1-2.14 ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Qo‘mitaning markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, idoraviy mansub tashkilotlar va hududiy organlari rahbarlari 2025-yil 2-yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejalarini o‘z muddatida bajarilishini ta‘minlasinlar.

3. Rais o‘rinbosarlari (F. Karabayev):

O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan hamda Qo‘mita raisi topshiriqlariga muvofiq belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishini;

Qo‘mitaning markaziy apparati va hududiy organlari Ish rejalaridagi topshiriqlar o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarilishini nazorat qilib borsin.

4. Axborot tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (U. Fayazov):

Bosh vazir o‘rinbosarlari kotibiyatlarining 2025-yil 2-yarim yillik ish rejalarini hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati tarkibiy bo‘linmalarining 2025-yil 2-yarim yillik ish rejalarida belgilangan vazifalarga muvofiq topshiriqlar

kelib tushganda mas’ul xodimlar belgilansin hamda ular tomondan so‘zsiz bajarilishi nazoratini o‘rnatsin;

Qo‘mita ish-rejasidagi topshiriqlar bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy umumlashtirilgan ma’lumotlarni har oy yakuni bo‘yicha Qo‘mita raisiga kiritib borsin.

5. Hududiy boshqarmalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (U. Xakimov) Qo‘mita hududiy organlarining ish rejasida belgilangan topshiriqlar bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy umumlashtirilgan ma’lumotlarni har chorak yakuni bo‘yicha qo‘mita raisiga kiritib borsin.

6. Devonxona (F. Ikramova) mazkur bayonnomani Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalariga yuborilishini ta’minlasin.

7. Mazkur yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Raqobatni rivojlantirish
va iste'molchilar huquqlarini himoya
qilish qo'mitasining
2025-yil 04-avgustdagি
38-01-13-sonli yig'ilish bayoniga
1-ilova**

**Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining
2025-yil II yarim yilligiga mo'ljallangan
ISH REJASI**

Nº	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
I. QONUN HAMDA METODOLOGIK HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH			
1.1. Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi tartibga solish yo'nalishida			
1.	Davlat xaridlari jarayonida raqobat qonunchiligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni va savdolarni o'tkazish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflarni tegishli organlarga kiritish.	2025-yil iyul-avgust	B. Boboxonov A. Salimov Markaziy apparat xodimlari
2.	Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining "Korporativ munosabatlarning huquqi asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori loyihasini ishlab chiqish.**	2025-yil oktyabr	Sh. Shadmankulov, Tegishli tarkibiy bo'linmalar
3.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Narx o'zgaruvchanligi davrida moliyaviy xavf-xatarlardan samarali himoyalanishni tashkil qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyul-avgust	D. Xamrayev, A. Botirov J. Avazov
4.	Raqamli bozorlarda iqtisodiy konsentratsiya oldidan rozilik olish bo'yicha Nizom loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil dekabr	D. Nasirova A. Mo'ydinov

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
5.	Ommaviy qirg'in qurollarni tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni baholashni inobatga olgan holda birja sektori kesimida baholash metodologiyasini qayta ishlab chiqish.	2025-yil dekabr	D. Xamrayev, A. Botirov
1.2. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida			
6.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga "Chakana savdoda aksiyalar va chegirmalarni tashkil qilish, o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. **	2025-yil avgust	E. Xaitmetov, Sh. Shadmankulov, B. Sharipov
7.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-dekabrdagi 716-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar ro'yxatiga kiritish bo'yicha taklif ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil oktyabr	E. Xaitmetov, Sh. Shadmankulov, B. Sharipov
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonining 4-ilovasi, 63-bandiga muvofiq ishga tushiriladigan "Iste'molchi murojaati" elektron tizimi orqali kelib tushadigan barcha iste'molchilarning murojaatlarini qabul qilish va barcha bosqichlarda monitoring qilib borish bo'yicha idoraviy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil noyabr	E. Xaitmetov, Sh. Shadmankulov, B. Sharipov
9.	O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunini xalqaro tajriba asosida tahlil qilish, mukammallashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	2025-yil dekabr	E. Xaitmetov, Sh. Shadmankulov, B. Sharipov
II. AMALIY CHORALAR (TAHLILLAR, O'RGANISHLAR, TEKSHIRISHLAR VA BOSHQALAR)			
2.1. Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi tartibga solish yo'nalishida			
10.	Birja savdolarida yoqilg'i mahsulotlari (suyultirilgan gaz, benzin) realizatsiyasi holati, bugungi kundagi sohada kuzatilayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2025-yil iyul-avgust	D. Xamrayev, A. Botirov J. Avazov
11.	Ichki bozorda shakar mahsulotiga bo'lgan talabdan kelib chiqib, bir savdo sessiyasida bir xaridor tomonidan xarid qilinadigan maksimal miqdor (limit)ni qayta ko'rib chiqish.	2025-yil iyul-avgust	D. Xamrayev, J. Avazov A. Botirov

№	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
12.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 3 iyundagi 36-sonli bayonidagi topshiriqqa muvofiq Raqobat qo'mitasi tomonidan temir yo'lda raqobat muhiti va chipta narxlari shakllanishi yuzasidan o'rganish o'tkazish.	2025-yil iyul-avgust	U. Davlatov, A. Orazmamedov A. Mingboyev D. Raximov
13.	Majburiy ijro byurosi bilan birgalikda Qo'mitaning hududiy organlari tomonidan oldingi yillarda undirishga qo'yilgan mablag'larning belgilangan tartibda undirilishi bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish.	2025-yil iyul-avgust	U. Davlatov, A. Orazmamedov A. Mingboyev D. Raximov
14.	"O'zbekiston Kabel televideniyesi" MChJning Telekommunikatsiya xizmatlari operatorlar/provayderlari bilan teledasturlarni kabel orqali uzatish bo'yicha litsenzion shartnomalarni tuzish bo'yicha Qo'mitadan so'ralgan xulosa bo'yicha tegishli o'rganishlar o'tkazgan holda javob xati yuborish.	2025-yil iyul-avgust	U. Davlatov, A. Orazmamedov A. Mingboyev D. Raximov
15.	"Navoiy IES" AJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan issiqlik energiyasining narxlari (tariflari) to'g'ri shakllantirilishi va qo'llanishini o'rganish.	2025-yil iyul-avgust	U. Davlatov, D. Botirov Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi
16.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Davlat muassasalarini isloh qilishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-123-son qaroriga asosan davlat muassasalari faoliyatini tahlil qilib, bitta tovar bozorida beshta va undan ortiq xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritib kelayotgan, raqobat rivojlangan sohalarda faoliyat yuritayotgan davlat muassasalarini xususiylashtirish yoki tugatish bo'yicha takliflarni Davlat komissiyasiga kiritish.	2025-yil iyul-avgust	D. Nasirova Hududiy organlar rahbarlari
17.	Hududiy organlarning raqobatga qarshi kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlar va insofsiz raqobatga qarshi kurashish bo'yicha 2025-yilning 1-yarim yilligida olib borgan faoliyatini tahlil qilish hamda mavjud kamchilik va muammolarni hal qilishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.	2025-yil iyul-avgust	B. Boboxonov A. Salimov Markaziy apparat xodimlari
18.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 28-oktyabrdagi 662-sonli qarori ijrosi yuzasidan Raqobat	2025-yil iyul-avgust	G.Qodirova, Sh. Shadmankulov

№	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish va xulosalar berish.		
19.	Hududiy raqobatbardoshlik indeksi asosida hududlarda raqobat muhitini tahlil etish.	2025-yil iyul-avgust	D. Nasirova A. Yusupov
20.	Chet davlatlariga chiqish bo'yicha vizani rasmiylashtirish uchun ariza topshirish xizmatlarini ko'rsatish bozorida tahlil o'tkazish.	2025-yil iyul-avgust	D. Nasirova A. Yusupov
21.	Raqamli platformalar, jumladan, mobil ilovalar do'konlari, umumiyl yoki targetlashgan onlayn qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, video (shu jumladan, televideniye va kino) va audio (shu jumladan, musiqa) kontentini onlayn uzatish yoki almashish platformalari bozorlarida tahlil o'tkazish va ustun mavqeyini e'tirof etish.	2025-yil iyul-avgust	D. Nasirova A. Yusupov J. Isroilov
22.	2023-2024-yillarda tashkil etilgan davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning affillangan shaxslarini ro'yxatini shakllantirish. Hududiy organlar tomonidan ushbu ro'yxatga asosan davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning affillangan korxonalari ro'yxatini tahlilini amalga oshirish hamda oldindan roziliqi olinmagan davlat korxonalari bo'yicha tegishli chora ko'rish.	2025-yil iyul-avgust	D. Nasirova A. Mo'ydinov Hududiy organlar rahbarlari
23.	Iqtisodiyot tarmoqlarini raqobat rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib, qizil, sariq va yashil guruhlarga ajratish.	2025-yil iyul-avgust	D. Nasirova A. Yusupov
24.	Tuman (shahar) hokimliklari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan davlat xaridlarini qonunchilik talablari asosida o'tkazilganligini o'rganish.	2025-yil avgust	B. Boboxonov A. Salimov Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
25.	Adliya vazirligi tomonidan o'tkaziladigan Raqobat qo'mitasining markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalarida murojaatlar bilan ishlash holatini kompleks o'rganishga bevosita tegishli ma'lumotlarni taqdim etish.**	2025-yil avgust	U. Fayazov, A. Mirzayev
26.	Birja savdolarida paxta tolasi, texnik chigit, paxta yog'i, shrot, sheluxa mahsuloti realizatsiyasi holatini tahlil qilish hamda chakana narxlarga ta'sir etuvchi omillar, shu jumladan ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan	2025-yil avgust	D. Xamrayev, A. Botirov

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	qonunchilikda belgilangan hajmlarda mahsulotning savdolarga qo'yilishini tahlil qilish.		
27.	Iste'mol bozorlarida paxta va kungaboqar yog'i mahsulotlari zanjirini o'rganish . Bunda, oziq-ovqat mahsulotlari zanjiri ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish (import qilish)dan boshlab oxirgi iste'molchigacha yetkazib beriladigan jarayon qamrab olinadi.	2025-yil sentyabr	D. Xamrayev, A. Botirov
28.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-311-son qarori 8-bandi "b"-kichik bandiga asosan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar davolanadigan kasalliklar ro'yxati hamda bazaviy narxlarini kasallikkarni davolash yo'nalishlari asosida barcha tibbiyot tashkilotlari uchun qayta tasdiqlasin.	2025-yil avgust	U. Davlatov, D. Raximov
29.	Tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda paxta xomashyosini paxta terish mashinalarida terib olish xizmati tariflarini tavsiyaviy miqdorini belgilash bo'yicha o'rganishlar o'tkazish.	2025-yil avgust	U. Davlatov, D. Raximov Hududiy organlar rahbarlari
30.	Tadbirkorlik subyektlarning yillik ishlab chiqarish quvvati uchun iste'mol va texnik etil spirtining talabi hamda birja savdolari orqali xarid qilingan iste'mol va texnik etil spirti miqdorini o'rganish	2025-yil sentyabr	D. Xamrayev, A. Botirov
31.	Mustaqillik va Yangi yil bayramlari munosabati bilan hududlardagi markaziy bozorlarda tashkil etiladigan " Savdo yarmarkalari "da ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarning narxlarini monitoring qilish hamda narxlar keskin oshishi holati kuzatilganda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2025-yil sentyabr	D. Xamrayev, A. Botirov, Hududiy organlar rahbarlari
32.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergen organning tabiiy monopoliya subyektlari tovarlarining narxlari (tariflari) bo'yicha qarori tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan mazkur qaror kuchga kirguniga qadar o'n besh kundan kechiktirmay ommaviy axborot vositalarida hamda o'z rasmiy veb-saytlarida e'lon qilganligini, shuningdek namunaviy shartnomalarni (ofertalarni) rasmiy veb-saytlarida joylashtirilganlik holatlari yuzasidan xatlov o'tkazish.	2025-yil sentyabr	U. Davlatov, D. Botirov Hududiy organlar rahbarlari
33.	"UzAuto CEPLA" MChJ QK, "LUKOYL Uzbekistan Opereyting Kompani" MChJ QK, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi	2025-yil	U. Davlatov, T. Salimov

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	vazirligi, “O'ZSANOATQURILISHBANK” ATB, “UNITEL” MChJ, “Steel property construction” MChJ hamda “YandexGo UB” MChJ faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish.	Sentyabr-dekabr	
34.	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va tizim tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan davlat xaridlarini qonunchilik talablari asosida o'tkazilganligini o'rganish.	2025-yil sentyabr	B. Boboxonov A. Salimov Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
35.	“FAIR TECH” yagona axborot tizimi doirasida Raqobat qo'mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi uchun yangi “Ta'lif” modulini ishlab chiqish.	2025-yil sentyabr-oktyabr	“Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” DM, B. Ochilov, A. To'xtaboyev
36.	Birja a'zolari tomonidan shubhali operatsiyalar haqidagi xabarlarni Maxsus vakolatli davlat organiga o'z vaqtida taqdim etish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan Departamentga taklif kiritish.	2025-yil oktyabr	D. Xamrayev, J. Ibragimov A. Botirov
37.	Kelib tushgan murojaatlar hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan maqolalar asosida hududlardagi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatida elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suv va oqova, issiqlik energiyasi xizmatlari bo'yicha kelib chiqayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash.	2025-yil oktyabr	U. Davlatov, D. Botirov, Hududiy organlar rahbarlari
38.	Mahsulot bozorini tartibga solish (Product market regulation, PMR) metodologiyasi asosida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini baholash, raqobatbardoshlikka to'siq bo'ladigan omillarni aniqlash, aniqlangan to'siqlar va nomutanosibliklarni bartaraf etish.	2025-yil iyul-noyabr	D. Nasirova, A. Yusupov
39.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6313-son Farmonining 3-band, “d” kichik bandi ijrosi yuzasidan “Hududgazta'minot” va “Hududiy elektr tarmoqlari” AJlar tomonidan ishlab	2025-yil noyabr	U. Davlatov, D. Botirov Hududiy organlar rahbarlari

№	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	chiqilgan ulgurji iste'molchilarni tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish va sotish to'g'risidagi ommaviy shartnomalarni raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqish.		
40.	Aholini ijtimoiy muhim turdag'i mahsulotlar bilan kafolatli ta'minlash va qishbahor mavsumi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini zaxiraga jamg'arish borasida Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot taqdim qilish.**	2025-yil noyabr	D. Xamrayev, A. Botirov
41.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish maqsadida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida davlat ishtirokidagi korxonalarни xatlovdan o'tkazib , oxirgi uch yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining o'rtacha yillik miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravaridan oshadigan hamda ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i davlatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxatini shakllantirish .	2025-yil noyabr	U. Davlatov, T. Salimov
42.	Ichki bozordagi raqobat muhitini nufuzli xalqaro tashkilotlarni jalg qilgan holda, har ikki yilda mustaqil baholashdan o'tkazish, aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.	2025-yil iyul-dekabr	D. Nasirova A. Yusupov
43.	Muqobilari bo'limgan va texnik jihatdan murakkab tovarlarni yetkazib beruvchilar bozorida tahlil o'tkazish.	2025-yil iyul-dekabr	D. Nasirova A. Yusupov
44.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-son Farmonining 3-band, "d" kichik bandi ijrosi yuzasidan "O'zsvuta'minot" va "Issiqlikta'minot" AJlar tomonidan ishlab chiqilgan ulgurji iste'molchilarni ichimlik suv va oqava suv hamda issiqlik energiyasi yetkazib berish va sotish to'g'risidagi ommaviy shartnomalarni raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqish.	2025-yil dekabr	U. Davlatov, D. Botirov Hududiy organlar rahbarlari
45.	Tovar-xom ashyo birjalari sektorida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini	2025-yil dekabr	D. Xamrayev, J. Ibragimov

№	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida tavakkalchiliklarni baholash jarayonlarini tashkil etish va yakunlash chorasini ko'rish.		
46.	Asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari narxi barqarorligini hamda inflyatsiyani belgilangan maqsadli ko'rsatkich doirasida bo'lishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturida Qo'mitaga belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash.**	2025-yil dekabr	D. Xamrayev, A. Botirov
47.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmonida Qo'mita mas'ul etib belgilangan tadbirlar ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni tayyorlash va tegishli tashkilotlarga kiritish.	2025-yil Har oyda	N. Sabirov
48.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-sentyabrdagi "Strategik islohotlarni jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-216-son Farmonining 5-bandi beshinchi xatboshisi ijrosini ta'minlash maqsadida Qo'mita islohotlariga doir qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi (hozirgi holati) to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga kiritib borish	2025-yil Har oyda	N. Sabirov
49.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-229-son Farmoni 12-bandi ijrosini ta'minlash.	Har oyning 5-sanasi	U. Fayazov, U. Xakimov
50.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-son qarori ijrosi yuzasidan, Qo'mita raisi (<i>Burgutqal'a, Tuproqqa'l'a, Ellikqa'l'a va Bazirgon</i>) hamda rais o'rinosari (<i>Aylanmajar, Qulariq, Chek, Istiqlol va Axshakguzar</i>)ga biriktirilgan mahallalarda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.	Har oy yakuni bilan keyingi oyning 10- sanasiga qadar	U. Fayazov, U. Xakimov
51.	Respublikamizning iste'mol bozorlaridagi 10 ta turdag'i ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini doimiy monitoring qilib borish.	Har chorakda	D. Xamrayev, A. Botirov

№	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	Monitoring natijalari bo'yicha tegishli tanqidiy ma'lumotlarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.**		
52.	Ichki bozorlarda suyultirilgan gaz hajmlari narxlarini tahlil qilish. Tahlil natijalari bo'yicha tegishli tanqidiy ma'lumotlarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.**	Har chorakda	D. Xamrayev, A. Botirov
53.	Ichki bozorlarda benzin mahsulotlari narxlarini tahlil qilish. Tahlil natijalari bo'yicha tegishli tanqidiy ma'lumotlarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.**	Har chorakda	D. Xamrayev, A. Botirov
54.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagagi PF-108-sон Farmoniga asosan " Biz sizni eshitamiz " loyihasi doirasida tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritish.	Har chorakda	U. Davlatov, T. Salimov
55.	Davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlardagi <u>monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatini</u> uchun mas'ul bo'lgan xodimlarga raqobat qonunchiligi talablarini keng tushuntirish va mazkur sohaga oid bilimlarini muntazam ravishda oshirib borish <u>maqsadida</u> telegram messenjerida mas'ul shaxslar uchun tashkil etilgan guruhda muntazam ravishda test sinovlarini o'tkazib borish.	Doimiy	U. Davlatov, T. Salimov
56.	Asosiy turdagи oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishini tahlil qilib borish.**	Doimiy	D. Xamrayev, A. Botirov
57.	Ijtimoiy muhim turdagи oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini doimiy monitoring qilish orgali narx o'sishi bo'yicha xavflarni tahlil qilish.**	Doimiy	D. Xamrayev, A. Botirov
58.	Asosiy turdagи oziq-ovqat mahsulotlari import-eksport ko'rsatkichlar bazasini shakllantirish va ularni tahlil qilib borish.**	Doimiy	D. Xamrayev, A. Botirov
59.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-sон qarori va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-apreldagi 161-sон qaroriga asosan " marketplace " tizimida ta'minotchilar taklif etayotgan mahsulotlar (xizmatlar) bo'yicha ustun mavqeni suiiste'mol qilishning, ta'minotchilarning o'zaro kelishib qilingan harakatlari va til biriktirishlari orqali narxlarning asossiz o'sishining oldini olish, yetkazib berilayotgan mahsulotlar (ko'rsatilayotgan xizmatlar) narxlarining hududdagi ichki bozor narxlariga mutanosib bo'lishini ta'minlash.	Doimiy	B. Boboxonov A. Salimov Markaziy apparat va hududiy organlar

№	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
60.	Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar, oldindan rozilik berish to'g'risida berilgan qarorlar va mazkur harakatlarni oldindan rozilik olmasdan sodir etganlik uchun qo'zg'atilgan ishlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar yuzasidan maqolalar tayyorlab Qo'mitaning rasmiy veb-saytida joylashtirib borish.	Doimiy	D. Nasirova, A. Mo'ydinov
61.	Respublika miqyosida narxlarni sun'iy ravishda pasaytirilishi yoki oshirib ko'rsatilishi holatlariga yo'l qo'ygan subyektlarni aniqlash va qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rilgan choralar bo'yicha Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha maxsus komissiyaga hisobot kiritish.	Doimiy	U. Davlatov, A. Mingboev
62.	Ustun mavqeい e'tirof etilgan (monopolist korxona yoki tabiiy monopoliya) subyektlari kesimida tartibga solinadigan narxlар (tariflar) to'g'ri shakllantirilishi va qo'llanishini o'rganish.	Doimiy	U. Davlatov, A. Mingboev
2.2. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida			
63.	Umumiy ovqatlanish korxonalarida iste'molchilarga to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishini va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan taomnoma mavjudligini o'rganish.	2025-yil avgust-sentyabr	E. Xaitmetov A. Raupov Hududiy organlar rahbarlari
64.	Iste'molchilarga yetkazib berilayotgan elektr energiyasini normativ hujjalari talablariga hamda shartnoma shartlariga muvofiq yetkazib berilishini o'rganish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2025-yil avgust-sentyabr	E. Xaitmetov, X. Ganjaev, Hududiy organlar rahbarlari
65.	Vazirlar Mahkamasining "Davlat tiliga oid qonunchilik hujjalari ijrosini ta'minlash hamda bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Rayosat majlisiga ushbu sohada Qo'mita tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan ma'lumot taqdim etish.**	2025-yil sentyabr	E. Xaitmetov, Sh. Maxamadaliyev, G. Qodirova
66.	Bank xizmatchilarini iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va iste'molchilar muammolari bilan ishlash mexanizmini optimallashtirish maqsadida xorijiy tajriba va amaliyotni o'rganish asosida moliyaviy xizmatlar sohasida Iste'molchilar	2025-yil avgust-sentyabr	E. Xaitmetov, F. Madaminov

№	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	huquqlarini himoya qilish standartlarini (Banking consumer protection principles) ishlab chiqish va joriy qilish.		
67.	Respublika hududidagi kinoteatrлar faoliyatida iste'molchilar huquqlari, reklama va davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjaliga riosa etish holatini o'rganish hamda o'rganish yakunlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga tahliliy ma'lumot kiritish.**	2025-yil avgust-sentyabr	E. Xaitmetov, Sh. Maxamadaliyev, F. Madaminov G. Qodirova, Hududiy organlar rahbarlari
68.	Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan o'rganilgan xususiy tibbiyot tashkilotlaridagi ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat turlari va amaldagi litsenziyasida ko'rsatilgan faoliyat turlarini tahlil qilish, qonunchilikka nomuvofiqliklar yuzasidan vakolatli organlarga axborot kiritish va takliflar ishlab chiqish.	2025-yil sentyabr	E. Xaitmetov, B. Sharipov, Hududiy organlar rahbarlari
69.	Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjalarini qo'llash bo'yicha tahlil qilish sud amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2025-yil sentyabr	E. Xaitmetov, Sh. Shadmankulov, F. Madaminov
70.	Iste'molchilarga issiqlik ta'minoti tashkilotlari tomonidan yetkazib berilayotgan issiqlik energiyasini sifatiga ko'ra standartlashtirish bo'yicha normativ hujjalar talablariga, sanitariya normalari va qoidalariiga hamda issiqlik ta'minoti shartnomasi shartlariga muvofiq bo'lgan issiqlik ta'minoti bo'yicha xizmatlar ko'rsatishi yuzasidan o'rganish va tahlillar natijalariga ko'ra huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan nomuayyan doiradagi iste'molchilarga yetkazilgan zararni qoplatish choralarini ko'rish	2025-yil oktyabr-dekabr	E. Xaitmetov, X. Ganjayev, Hududiy organlar rahbarlari
71.	Aholiga kuz-qish mavsumida suyultirilgan gazni belgilangan hajmda yetkazib berilganligi o'rganish.	2025-yil oktyabr-dekabr	E. Xaitmetov, X. Ganjayev, Hududiy organlar rahbarlari
72.	Tashqi yozuvlarni tartibga solish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjaloyihasini ishlab chiqish.**	2025-yil sentyabr-noyabr	E. Xaitmetov, Sh. Maxamadaliyev, Sh. Shadmankulov,

№	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
			G. Qodirova
73.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi tashqi yozuvlar, xususan, peshlavha, reklama va boshqa e'lolar, axborot matnlarining davlat tili va reklama to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o'rganish.**	2025-yil dekabr	E. Xaitmetov, Sh. Maxamadaliyev
74.	Tovarlarning nazorat xaridi amalga oshirilishini, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari bilan birgalikda ularning ekspertizadan (testdan) o'tkazilishini tashkil etish.	Doimiy	E. Xaitmetov, A. Raupov Hududiy organlar rahbarlari
III. AMALGA OSHIRILGAN ISHLARNI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITISH			
75.	Qo'mita tarkibiy bo'linmalari tomonidan 2025-yil 1-yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida" brifinglar tashkil etish yoki Qo'mitaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida sohaga oid tahliliy materiallar yoritish.	2025-yil lyul-avgust	O. Usmonov, Jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish xizmati
76.	Davlat xaridlari jarayonida amalga oshirilgan savdolarda raqobatga qarshi harakatlar, kartel kelishuvlari yoki kelishib olingan harakatlar mavjudligini o'rganish hamda amalga oshirilgan ishlar va aniqlangan holatlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.	Doimiy	B. Boboxonov, A. Salimov, O. Usmonov, Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
77.	Raqobatga qarshi kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlar va insofsiz raqobatga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha ommaviy axborot vositalari uchun materiallar tayyorlash va e'lol qilib borish.	Doimiy	B. Boboxonov, O. Usmonov, Markaziy apparat va hududiy organlar
78.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Qo'mitaning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlari orqali keng yoritib borish.	Doimiy	T. Salimov, O. Usmonov
79.	Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan ishlarni axborot xizmati bilan hamkorlikda OAVda yoritish.	Doimiy	E. Xaitmetov, O. Usmonov,

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
			A. Raupov, Hududiy organlar rahbarlari
80.	Reklama munosabatlari masalalari sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan ishlarni axborot xizmati bilan hamkorlikda OAVda yoritish.	Doimiy	E. Xaitmetov, Sh. Maxamadaliev, O. Usmonov, Hududiy organlar rahbarlari
81.	Yuqori likvidli va monopol turdag'i mahsulotlarni birja savdolariga chiqarilishi ustidan olib borilgan ishlarni yuzasidan Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan ishlarni axborot xizmati bilan hamkorlikda OAVda yoritish.	Doimiy	D. Xamrayev, O. Usmonov, A. Botirov, Hududiy organlar rahbarlari,

IV. XALQARO AMALIYOTNI O'RGANISH VA TATBIQ ETISH

82.	<p>Iqtisodiy konsentratsiya bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish, bunda yirik bitimlar va kelishuvlarni tuzishga rozilik berishda monopoliyaga qarshi organ tomonidan belgilanadigan talablar hamda shaxslar guruhi ichida tuziladigan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish.</p> <p>O'rganish natijalariga asosan, tovar-moliya bozoridagi raqobat muhitini yanada oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish va rahbariyatga kiritish.</p>	2025-yil avgust	D. Nasirova, Sh. Qahhorov, Hududiy organlar
83.	<p>Elektr ta'minotida uzilishlar, avariya holatlarini bartaraf etishni davriyligi va reglamentini belgilash hamda iste'molchilarga kompensatsiya to'lashni nazarda tutuvchi takliflarni ishlab chiqish.</p> <p>Bunda, elektr energiyasi yetkazib berishda uzilishlar, ta'minotni asossiz ravishda to'xtatilishini oldini olish, yetkazib beruvchi korxonalarini mas'uliyatini oshirish maqsadida iste'molchilarga kompensatsiya to'lash mexanizmini joriy qilish bo'yicha taklif ishlab chiqish.</p>	2025-yil sentyabr	E. Xaitmetov, X. Ganjayev
84.	Birja orqali amalga oshiriladigan savdolarning shaffofligi va samaradorligini oshirish, erkin raqobat muhitini shakllantirish, milliy ishlab chiqaruvchilar va	Doimiy	D. Xamrayev, J. Avazov,

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	eksportchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish hamda amaliyotga tatbiq etish.		A. Botirov, Hududiy organlar rahbarlari
V. XODIMLARNI MALAKA VA SALOHIYATINI OSHIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR			
85.	Qo'mitaning malakali mutaxassislari tomonidan hududiy boshqarmalar xodimlari uchun davlat xaridlari sohasida raqobat muhitini ta'minlash, insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish yuzasidan o'quv seminarlari tashkil etish.	Doimiy	B. Boboxonov, A. Salimov
86.	Qo'mitaning va hududiy boshqarmalarning insofsiz raqobat hamda tanlov savdolarni nazorat qilish bo'yicha mutaxassislarini Qo'mitaga kelib amaliyot o'tashlarini tashkillashtirish.	Doimiy	B. Boboxonov, A. Salimov Markaziy apparat
87.	Raqobat sohasi va monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatiga oid xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida o'tkaziladigan seminarlar, konferensiylar va amaliy treninglarda online va offline tarzda ishtirok etish.	Doimiy	U. Davlatov, T. Salimov
88.	Qo'mita markaziy apparati va hududiy organlarning mutaxassislari uchun birja savdolarini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, birja faoliyatiga oid so'nggi yangiliklar bilan tanishtirish maqsadida o'quv seminar tashkil etish.	2025-yil dekabr	D. Xamrayev, A. Botirov, U. Qalandarov, O. Jumayev Hududiy organlar rahbarlari
89.	Qo'mitaning inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari xodimlari bilan "Davlat fuqarolik xizmatida mehnat munosabatlari" va "hrm.argos.uz" elektron tizimda ishlash yuzasidan amaliy-seminar tashkil etish.	2025-yil avgust	U. Qalandarov, bo'lim xodimlari
90.	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va hududiy organlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasida o'qitishlar (seminar) tashkil etish.	2025-yil noyabr	U. Qalandarov, bo'lim xodimlari
VI. SOHANI RAQAMLASHTIRISH			

Nº	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
91.	Yuqori likvidli va monopol turdagи mahsulotlar sotuvchilar tomonidan birja veb saytiga grafiklarni o'z vaqtida joylashtirilishi hamda manipulyatsiya holatlarini aniqlashni raqamlashtirish.	2025-yil avgust	"Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi" DM, D. Xamrayev,
92.	Respublikada faoliyat yuritayotgan va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan tovar xom ashyo birjalari tomonidan elektron tizim orqali Qo'mitaga beriladigan savdolarga oid ma'lumotlarni yagona tizimga birlashtirish choralarini ko'rish.	2025-yil sentyabr	"Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi" DM, D. Xamrayev

Izoh: - qonunchilikda o'zgartirishlar bo'lganda, Qo'mita tarkibiy bo'linmalarida o'zgarishlar bo'lganda va/yoki boshqa asosli sabablar bo'lganda ish rejaning chora-tadbirlari, ijro muddati va ijrochilar o'zgartirilishi mumkin.

** - Vazirlar Mahkamasining 2025-yilning 2-yarim yilligiga mo'ljallangan ish rejasidan kelib chiqib belgilangan topshiriqlar.